

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, X.N.Qosimova</b> Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati.....	8
<b>T.A.Egamberdiyeva</b> Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari .....	13
<b>N.T.To‘xtaboyev</b> Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasi tahlili .....	18
<b>I.B.Siddiqov</b> Tarixiy-badiiy asarlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida.....	25
<b>N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva</b> Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi .....	28
<b>Sh.A.Mamajonov</b> Oliy ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish.....	32
<b>M.M.Kuzibayeva</b> Vrach-shifokorning pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan vazifalar.....	37
<b>K.R.Abdullayeva</b> Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	39
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	43
<b>U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev</b> Talabalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari .....	48
<b>R.Z.Xayrov</b> Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari.....	54
<b>G.U.Radjabova</b> Ta‘lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi.....	61
<b>Г.К.Якубова</b> Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" .....	67
<b>M.M.Xamroliev</b> Fanlararo hamkorlik asosida o‘quvchilar bilimini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	73
<b>U.V.Mamadjanov</b> Maktabda musiqa fanini o‘qitishning metodologik asoslari .....	76
<b>S.X.Kaxxarov</b> Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari .....	80
<b>X.X.Tojiyev</b> Texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash .....	85
<b>D.S.Sobirov</b> Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari .....	92
<b>D.Z.Isaboyeva</b> Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) .....	96
<b>F.Q.Yusupjanova</b> O‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari .....	99
<b>X.A.Ustadjalilova</b> Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari.....	102

**FANLARARO HAMKORLIK ASOSIDA O'QUVCHILAR BILIMINI RIVOJLANTIRISHNING  
PEDAGOGIK ASOSLARI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ  
МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА****PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'  
KNOWLEDGE BASED ON INTERDISCIPLINARY COOPERATION****Xamroliyev Mirodiljon Maxamadjonovich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada fanlararo hamkorlik asosida o'qitishning afzalliklari, metod va vositalari o'rganilgan hamda uning o'quvchilar bilimini rivojlantirishdagi pedagogik asoslari tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье анализируется необходимость повышения педагогической культуры и компетентности, ее уникальные методы, а также освещаются ее методологические аспекты.*

**Abstract**

*В данной статье изучаются преимущества, методы и инструменты обучения на основе междисциплинарного сотрудничества и анализируются его педагогические основы в развитии знаний учащихся.*

**Kalit so'zlar:** fanlararo hamkorlik, integratsiya, integratsion ta'lim, hamkorlikda o'qitish, interfaol metodlar, hamkorlik pedagogikasi.

**Ключевые слова:** междисциплинарное сотрудничество, интеграция, интегрированное образование, кооперативное обучение, интерактивные методы, кооперативная педагогика.

**Key words:** interdisciplinary cooperation, integration, integrated education, cooperative teaching, interactive methods, cooperative pedagogy.

**KIRISH**

Hamkorlikda o'qitish pedagogika fanida ancha yillardan buyon amalga oshirilmoqda. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi nimanidir birgalikda bajarish emas, balki birgalikda o'qishdir. Hamkorlik ta'limi pedagog va o'quvchilarni ta'limiy faoliyat jarayonida birgalikda rivojlanishi, bir-birini chuqur tushuna olishi, bir-birlariga nisbatan qalban yaqinlikni his qilishi, faoliyat bosqichlari va shu bosqichlarda erishilgan natijalarni hamkorlikda tahlil qilishdan iborat bo'lib, ilg'or, rivojlantiruvchi g'oyalarni o'zida aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Hamkorlik pedagogikasini novator-pedagoglar (Sh.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, I.P.Volkov, V.F.Shatalov, Y.N.Ilin va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o'qituvchi va o'quvchilar) o'rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'zaro munosabatlarni tashkil etishini ta'kidlab o'tadilar [1]. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalar A.Avloniy, G'.G'ulom, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o'z ifodasini topgan. O'tgan asrning 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o'qitishda natijalarni oldindan ko'ra bilish, amaliy faoliyatni tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Ta'lim jarayonida kichik guruhlarda o'qitishdan Germaniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Yaponiyada foydalanilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Pedagogik hamkorlik g'oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va «XXI asr ta'limi konsepsiyasi» asosini tashkil etadi. Bolaga insonparvarlik asosida shaxsiy yondashuv maktab ta'limi tizimida bola shaxsi, uning hali rivojlanmagan qobiliyatlari, «men»ligi ustuvor o'rin tutadi. Maktabning maqsadi mavjud qobiliyatlarni rivojlantirish, shaxsni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uni erkin rivojlantirishdan iboratdir.

Integratsiyalashgan darslar – interaktiv ta'lim tizimi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko'rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o'rganadi. Ko'rgazmali ta'lim tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan [2].

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari hamkorlik pedagogikasi asosida shakllangan bo'lib, u an'anaviy pedagogikadan quyidagicha farqlanadi: An'anaviy ta'limda o'qituvchi pedagogik jarayonning subyekti, o'quvchi esa obyekti deb qaraladi. Hamkorlikda o'qitish o'quvchining ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Hamkorlikda o'qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

– o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi;

– o'quvchilarga ular o'rtasida taqsim qilinib, o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar to'plamini beradi;

– o'quvchilarda materialni o'rganishga ishtiyoq uyg'otadi;

– o'quvchilarning o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

– axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;

– o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;

– turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlik ta'limi quyidagi maqsadli yo'nalishlarga asoslanadi [4]:

- pedagogik talabni inkor etgan holda ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;

- o'quvchilarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;

- ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish.

Hamkorlik ta'limining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini birgalikda bajarish hamda birgalikda ta'lim olishni nazarda tutadi. Bunday ta'lim texnologiyasini qo'llashda o'quvchilar o'quv topshiriqlarini sheriklari bilan hamkorlikda to'g'ri bajarishlari bilan birga, guruhning har bir a'zorida ta'limiy faollikni yuzaga keltirishga ham e'tibor qaratilishi lozim.

Hamkorlikda o'qitish o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka tartibda, jamoa bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi, o'quvchilarning o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi interfaol jarayon hisoblanadi. O'quvchilar topshiriqlar ustida kichik guruhlarda hamkorlikda ishlaydilar va o'zlariga hamda o'z guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam beradilar.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishning o'ziga xos asoslari [3, 5]:

- tashkiliy-pedagogik asoslar – o'quv reja, dastur, dars mavzusi, DTS talablari va ularga muvofiq darajada o'zlashtirilishi talab qilinadigan yangi bilim hajmi asosida o'quv mashg'uloti ishtirokchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun shart-sharoit imkoniyatlarini belgilash va amalga oshirish;

- psixologik asoslari – o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish, o'quvchi uchun qulay psixologik muhit yaratish, dars mazmunidagi tushuncha, atama va boshqa shartlarning o'quvchi uchun sodda va tushunarli bo'lishi;

- uslubiy asoslari – mashg'ulot uchun zarur vositalarni oldindan tayyorlash, ularning talab darajasida, sifatli bo'lishni ta'minlash;

- muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil etish.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonini takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani ko'rish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarini tashkil qilishda: o'qituvchi-sinf, o'qituvchi kichik guruh. O'qituvchi-katta guruh, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi (juftlikda ishlash), kichik-guruh, guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllar qo'llaniladi. Hamkorlikda o'qitish-bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka o'quvchi hamda butun sinf bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o'quvchilarning ham o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. O'quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi va o'zlariga hamda o'z guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berishadi [6,7].

## PEDAGOGIKA

Hozirgi kunda bir qator predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitishning vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

**XULOSA**

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari o'quvchilarning kreativ (tadqiqotchilik xarakteriga ega, ijodiy tafakkurni jadal ravishda rivojlantirish ta'limi) qobiliyatlarini takomillashtirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligi ma'lum. Hamkorlikda o'qitishga asoslangan pedagogik jarayonda yuqorida qayd etilgan g'oyalar asosida shaxsga yo'naltiriluvchi (rivojlantiruvchi) texnologiya yaratiladi. Ta'lim texnologiyasining mohiyati shaxsni rivojlantirish, ta'lim nazariyasini asoslash uchun nazariy shart-sharoit yaratish emas, balki unga o'z o'zini tarbiyalashga yordam berishdan iborat bo'lishi lozim.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Xolmatov P., Shirinov M. Pedagogika. (2016). Darslik. — T.: «Navro'z».
2. Safin D.V., Musina R.G. (2017). Ta'lim berish va o'qishning interaktiv usullari. O'quv qo'llanma. 5-modul, — T., -43-b
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. (2008). Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. — T.: «Fan va texnologiyalar».
4. Бозорова С. Олий таълимда касбий-йўналтирилган ўқитиш технологияси. Монография. Тошкент.: -Б. 70.
5. Данюшенков В.С. Теория формирования активности школьника // Наука и школа — Москва, 1999. - №2. -С.39-45.
6. <http://www.pedagog.uz/>
7. <http://www.ziyonet.uz/>